

**O`SIMLIKLARNING KO`PAYISHI O`SIMLIKLARNING JINSIY KO`PAYISH
EVALIYUSIYASI****Baratov Shohijahon Furqatovich***Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Xalqaro Ta'lim Fakulteti Farmatsiya yo'nalishi**2 bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada barcha tirik organizmlarga xos xususiyatlar o`simliklarda ham mavjud. O`simliklar ham nafas oladi , oziqlanadi , rivojlanadi va ko`payishi haqida aytib o`tilgan.*

Kalit So`zlar : *Ko`payish ,Tuban o`simliklar , Yuksak o`simliklar , Jinsiy ko`payish , Konyugatsiya , Kopulatsiya .*

KIRISH

Barcha tirik organizmlarning o`ziga o`xshash yangi avlodni hosil qilish ko`payish deb ataladi . Ko`payish faqat avlodni saqlab qolmay , o`simliklarning tabiatda tarqalishiga asos bo`ladi . O`simliklar dunyosida ko`payishning turli xillari mavjud . Tuban , shuningdek yuksak o`simliklar uch xil yo`l bilan jinsiy , jinsiz hamda vegetativ usulda ko`payish orqali yangi avlodni yuzaga keltiradilar .

Tadqiqot maqsadi : O`simliklarni Jinsiy ko`payish usularini aniqlash .

Tadqiqot materiallari va usullari : Jinsiy ko`payishning mohiyati shundaki fiziologik jihatdan farq qiladigan ikkita gaploid hujayra qo`shilib , yangi organizmni vujudga keltiradi . Jinsiy ko`payishda qo`shiladigan hujayralar jinsiy hujayra – gameta deb ataladi .Gameta grekcha « gamete» - xotin , « gametes » - yer degan so`zdan olingan . Gametalar orasidagi fiziologik farq shundan iboratki , bir gameta urg`ochi , ikkinchisi esa erkak hisoblanadi . Gametalar bir yoki har xil organizmda paydo bo`lishi mumkin. Ular qo`shilib bitta hujayra – zigotani vujudga keltiradi . Yangi organizm bu zigotaning rivojlanishidan hosil bo`ladi , Agar gametalar bir – biri bilan qo`shilmasa , yangi organizmni hosil qiluvchi zigota vujudga kelmaydi va ular halok bo`ladi. O`simliklarda jinsiy ko`payish konyugatsiya va kopulyasiya deb ataladigan ikki tipga bo`linadi . Konyugatsiya yo`li bilan ko`payishda o`zaro yaqin turgan ikki hujayraning qarama – qarshi tomonidan maxsus o`simta hosil bo`lib , ular bir- biriga qarab o`sadi. O`simtalar uchrashishi bilan ular o`rtasidagi parda erib kanalchani hosil qiladi.Hujayraning biridagi protoplast ikkinchisiga kanalcha orqali o`tadi va yadro bilan yadrosi, sitoplazma bilan sitoplazmasi qo`shiladi va natijada zigota hosil bo`ladi . Hosil bo`lgan zigota ustidan yangi qalin po`st qoplanadi hamda noqulay sharoitdan o`zini saqlaydi. Qulay sharoit yuzaga kelishi bilan undan yangi organizm vujudga keladi .Bunday ko`payishni suvo`ti spiragirada uchratish mumkin .

Kopulatsiya yo`li bilan jinsiy ko`payish izogamiya , geterogamiya , oogamiya kabi shakllarda o`tadi. «Kopulatsiya » lotincha so`z bo`lib juftlashish degan ma`noni bildiradi .

Izogamiya grekcha soʻz boʻlib « izos » - teng , « gomeo » - nikohlanaman , degan maʼnoni bildiradi . Kttaligi va shakli bir – biridan farq qilmaydigan erkak va urgʻochi gametalarning xivchini boʻlib , uning yordamida suvda tez suzib harakatlana oladi . Ular bir-biri bilan qoʻshilganda xivchinsiz bitta hujayra – zigota hosil boʻladi . Bu hujayra keyinroq qalin poʻstga oʻralib , oʻzini noqulay sharoitdan asraydi. Bunday koʻpayishni yashil suvoʻtlaridan ulotiksda koʻrish mumkin .

Geterogamiya ham grekcha « getros » har xil , « gomeo »- nikohlanaman degan soʻzdan olingan. Bunda gametalar oʻzining katta – kichikligi bilan bir-biridan farq qiladi , xivchinli ikkita gameta ham bemalol harakat qiladi. Ularning kichikrogʻl erkak gameta mikrogameta , yirikrogʻl esa urgʻochi makrogameta hisoblanadi. Mikrogameta makrogametaga nisbatan harakatchan boʻladi . Ikkalasi qoʻshilganda zigota hosil boʻladi. Bu geterogamiya yoʻli bilan koʻpayishga hujayrali xlamidomonadani misol .

Jinsiy koʻpayishning uchinchi shakli oogoniya boʻlib , grekchada «oog» -tuxum , «gomeo» - nikohlanaman degan maʼnoni bildiradi . Oogomiyada urgʻochi gameta yirik va qoʻzgʻalmas , erkak gameta esa juda mayda hamda harakatchan boʻladi . Urgʻochi gametaning xivchini boʻlmaydi , u tuxum hujayra deb ataladi. Spermatozoid yoki spermioy deb ataladigan erkak gametaning esa xivchini boʻladi. Oogomiya yashil suv oʻtlarida hamda qoʻngʻir suv oʻtlaridan fukusda uchraydi . Koʻpchilik tuban oʻsimliklarda va barcha yuksak oʻsimliklar oogomiya yoʻli bilan koʻpayadi.

Natija : Jinsiy koʻpayish usulda , fiziologik jihatdan farq qiladigan ikkita gaploid hujayra qoʻshilib , yangi organizm vujudga keladi.

Xulosa : Xulosa qilib shuni aytish mumkin, barcha tirik organizmlarga xos xususiyatlar oʻsiliklarda ham mavjud .Oʻsimliklar ham koʻpʻayadi .Oʻsimliklarning jinsiy koʻpayishi faqat avlodni saqlab qolmay , oʻsimliklarning tabiatda tarqalishiga asos boʻladi. Tabiatni qancha asrab avaylasak shuncha bizlarga tabiat oʻz neʼmatlarini inom etadi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.M.T.Yulchiyeva , N.T.Atamurodova ,
2. E.A.Latipova , N.K.Safarova - Farmatsevtik Botanika
- 3.« Oʻsimliklarning koʻpayishi » 136-137 betlar
4. T.: «EFFECT – D » - 2021
- 5.A.Gʻafurov , A.Abdukariyov , J.Tolipova ,
- 6.O.Ishankulov , M.Umaraliyev , I.Abduraxmonova - Biologiya
- 7.« Oʻsimliklar filogenezi » 187-190 betlar
- 8.T.: « SHARQ » - Toshkent – 2018